

«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI
UMUMIY YIG'ILISHINING BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

2025-yil 29-dekabr

№ 6

Toshkent shahri

Soat: 11-00

Shahrisabz ko'chasi, 2-uy

...
...
...

KUN TARTIBI

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.
5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.
6. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.
7. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
8. Bankning 2025-yil faoliyatini auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuzishni ma'qullash.
9. Bankning overnayt shartlari asosida mablag'larni joylashtirish limitini oshirish.
10. Bankning affillangan shaxsi bilan bitim tuzishni ma'qullash.
11. Bankning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar ro'yxatini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **birinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni uch kishidan iborat bo'lsin va quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

Mamaraimov Muzrob Zuxriddinovich – "Open bank" aksiyadorlik jamiyati

Chakana biznes boshqarmasi boshlig'i;

Napasov Bunyodbek Rashidbek o'g'li – "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Yuridik boshqarmasi bo'lim boshlig'i, komissiya a'zosi;

Salomov Sardor Fozil o'g'li – "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Korporativ biznes boshqarmasi bosh menejeri, komissiya a'zosi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlansin va u quyidagi tartibda tashkil etilsin:

ma'ruzalar uchun 15 daqiqagacha vaqt ajratilishi;

muhokama va muzokaralar, shuningdek ovoz berish uchun 10 daqiqagacha vaqt ajratilishi.

Kun tartibidagi uchinchi, to'rtinchi, beshinchi va oltinchi masalalar bo'yicha:

3. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organni tashkil etish.

5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.

6. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **uchinchi, to'rtinchi, beshinchi va oltinchi masalalar** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

3. Kun tartibidagi uchinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

4. Kun tartibidagi to'rtinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

5. Kun tartibidagi beshinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi

qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

6. Kun tartibidagi oltinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **yettinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

7. Bankning tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8. Bankning 2025-yil faoliyatini auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuzishni ma'qullash.

...

...

...

Kun tartibidagi **sakkizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

8. Bankning 2025-yil faoliyatini auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun "Ernst&Young" MCHJ shaklidagi auditorlik tashkiloti tanlab olinganligi tasdiqlansin, uning xizmat haqi miqdorining yuqori chegarasi 1,2 milliard so'm etib belgilansin hamda u bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzish bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatilsin.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha:

9. Bankning overnayt shartlari asosida mablag'larni joylashtirish limitini oshirish.

...

...

...

Kun tartibidagi **to'qqizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

9. Bankning overnayt shartlari asosida mablag'larni joylashtirish limiti amaldagi 400 milliard so'mdan 500 milliard so'mga oshirilsin hamda bank Boshqaruvi tomonidan bankning bo'sh pul mablag'larini joylashtirishda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ta'minlansin.

Kun tartibidagi o'ninchi va o'n birinchi masalalar bo'yicha:

10. Bankning affillangan shaxsi bilan bitim tuzishni ma'qullash.

11. Bankning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar ro'yxatini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **o'ninchi va o'n birinchi masalalar** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

10. Bankning affillangan shaxsi bilan bitim tuzish yuzasida loyiha hamkor tomonidan qiziqish bildirilmaganligi sababli ushbu kun tartibidagi masala ko'rilmadan qoldirilsin.

11. Bitim tuzish yuzasida loyiha hamkor tomonidan qiziqish bildirilmaganligi sababli ushbu kun tartibidagi masala ko'rilmadan qoldirilsin.

...

...

...

Yig'ilish raisi

imzo

N. Yusupov

Ko'chirma asliga to'g'ri:

